



## BADIY ASARDA QAHRAMON RUHIYATI TASVIRINI OCHISHDA MONOLOG VA DIALOGNING O'RNI

**Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirda o'zing badiiy ijod namunalari bilan adabiyotimizga o'z hissasini qo'shib kelayotgan yozuvchilarimiz Luqmon Bo'rixon hamda Xurshid Do'stmuhammad asarlari tahlilga tortilib, asarlardagi qahramonlar ruhiyati, ichki-kechinmasi davr va voqe-a-hodisalarga nisbat qanday tipda ro'y berayotganligi hamda ularni monolog va diologlar orqali ifoda etilishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ruhiyat, ichki kechinma, psixogizm, bosh qahramon, tipik obraz, monolog, dialog.

Qahramon ruhiyatini davr ruhi, asarning bosh g'oyasi bilan chuqur bog'langan holda mahorat bilan ochib berishning eng natijali usullaridan biri monolog va dialoglardan to'g'ri va o'z o'rnila foydalana bilishdir.

Adabiyotshunos olimlarimizning to'g'ri ta'kidlaganidek monologning ikki turi mavjud. Bular «ichki» va «tashqi» monologlardir. Ma'lumki, monologik ong asar badiiy to'qimalarini harakatga keltiradigan, voqealar tizimini uyuştiradigan hamda psixologik keskinlikni ta'min etadigan yetakchi atributdir. Fanda mazkur istillohning zohiriyl va botiniy ko'rinishlari tafovutlanadi. «Monolog (yunonchi-monos-logos-bir so'z)-asar qahramonining suhbatdoshiga, ba'zan tomoshabinga qarata aytgan so'zi, nutqi». [1] Ammo, ushbu sharh ko'proq tashqi monologga berilgan ta'rifdir. Chunki ichki monolog-qahramonning o'z-o'zi bilan ichdan tortishuvi, fikrlashi, hali faoliyatida namoyon bo'lмаган, faqat o'zigagina ayon orzu-niyatlarning ichki ifodasidir. Tashqi monologga nisbatan ichki monologlarda fikrlar, g'oyalalar qarama-qarshiligi, kurashi ustun keladi. Demak, u qisman mustaqil poetologik kategoriya bo'lib, suhbatdosh yoki tomoshabin doirasidan chiqishi hamda, ichki taftish-nazorat shakliga o'tishi mumkin. Qolaversa, tashqi monologga nisbatan ichki nutqda dramatik keskinlik ustuvorligi kuzatiladi. Monolog va ichki monologlarning bir xil hodisa emasligini, ularning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini adabiyotshunos N. Hotamov, B. Sarimsoqovlar «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati» (Toshkent 1979 yil)da va qozoq adabiyotshunosi N. Atimovning «Dastur Jane janashildiq» maqolasida («jazio'shi» oynomasi. Alma-ata 1980 yil, 77-bet) qayd qilib o'tadilar.

Psixologiya sohasida o'z maktabini yaratgan olim S.L. Rubinshteyn badiiy asarda inson ruhiyatining tasviri borasida shunday deydi: "Ichki hayoti bilan hisoblashib yashovchi har qanday odam bosib o'tgan yo'lini tahlil qilish uchun ortga qarar ekan,



ongida umrining alohida betakror, shukuhli onlari yorqin kechinmalar sifatida chuqur iz qoldirganligi bilan bogliq xotiralar uygondi. Qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan, so'z rassomlari aynan uning kechinmalari o'sish-kamolotga erishishdagi individual yolini hayotining burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Ittifoqo, inson kechinmalari bu uning real hayotining nosubyektiv tomoni, shaxs umr yolinining subyektiv aspektidir". [3]

Qahramonlar ruhiyatini tasvirlash borasida Luqmon Bo'rixon o'zbek qissachiligidida hozirgacha bir qancha asarlar yaratib kelmoqda. Bulardan: "Xizr ko'rgan yigit", "Sirli muallim", "Quyosh hali botmagan" va "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" kabi bir qator qissalari adabiyot olamida o'z o'rniiga ega. U ananaviy qissachiligmizda qollanilgan ichki monolog, o'y-mulohaza yuritish, g'azab kabi inson psixologiyasida yuz beradigan holatlarni o'ziga xos bir yosinda tasvirladi. Luqmon Bo'rixon o'ziga xosligi shundaki, u boshqa ijodkorlar singari barcha ruhiy holatlarni tafsilotlari bilan birma-bir bayon qilib o'tirmay, urg'uni eng avj nuqtalariga beradi.

Inson ruhiyatini ochishda san'atkor mahoratining, masuliyatining o'rni to'g'risida Abdulla Qahhorning o'zi shunday yozgan edi: "Psixologizm kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif zarif tomonlari va go'zalligiga yaxshi e'tibor qilish to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir." [5.277]

Luqmon Bo'rixon "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" qissasida qahramonlarning ruhiyati turlicha tasvirlangan.

Qissa qahramon tilidan hikoya qilinar ekan, asar boshlanishi quydagicha boshlanadi "Ko'p qavatli uylardan birining yo'lagidan otilib chiqqan Latif go'yo qayon yurishini bilmaganday bir zum jonsarak turib qoldi. Tevarak tun chodrasiga burkangan. Baland-past simyog'ochlardagi chiroqlar qizg'ish-sarg'ish yog'dular sochib, uylar atrofini, ko'cha-ko'yni xira yoritadi. Latif qatnov ancha siyraklashgan yo'l yoqasi tomon ildam qadamladi". [2.1]

Demak, qahramonimiz Latif shoshib bormoqda, buning sababi esa u G'arg'araga ya'ni besh yosh qizchasi Shaydoni olib kelishi uchun ketayotgan edi. Uni bir hafta oldin katta holasi o'zining uyiga olib ketgandi. Va yo'lda u taksiga o'tirarkan haydovchi bilan suhbatlashdi.

- Aka, vokzalga, - dedi Latif, mashina eshagini qiya ochib.
- O'rtta yashar, xumkalla haydovchi bir zum o'ylanib turgach, bosh irg'adi.
- O'tiring.

Latif shosha-pisha orqa o'rindiqqa o'zini tashladi.

Ko'r kam, bejirim yo'lqopini yoniga qo'ydi. - Ancha kech chiqibsiz, uka, yo'l bo'lsin? - deb so'radi haydovchi, mashinani yeldirib ketar ekan.

- Davlat ishini bilasiz-ku, komandirovka, - deb qo'ydi Latif odatdagidek o'zini o'ta jiddiy va muhim odam ko'rsatishga tirisharkan, - G'arg'ara poyezdiga ulgurish kerak.

- Xo'p, xo'p. [2.1]



Ushbu qissada qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi monolog, kabi poetik vositalarning ham mazmun-mohiyati ancha teran. Hikoya qahramonlarning o'rtasida bo'lgan dialog va monologlar shunchaki oddiy so'zlashuvlar emas balki, qahramoning ruhiy holatini olib beruvchi omildir.

Personaj nutqida aytيلayotgan har bir so'z uning ruhiyatni, xarakterini ma'lum bir ma'noda olib berish uchun xizmat qiladi. "Insonning ruhiy dunyosi o'zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, dialog va monologlar vositasida ochiladi "[4.127.]

Albatta, asar o'qiyotgan kitobxon monolog va dialoglarni o'qigandan so'ng, qahramonlarning ruhiyatini his qilishi tabiiy.

Xuddi shu kabi yana bir iste'dodli yozuvchi - Xurshid Do'stmuhammadning asarlarida ham o'zida ruhiyatni aks ettiruvchi monologlar uchraydi.

Ayniqsa, uning "Bozor" romanida bu yaqqol ko'zga tashlanadi.

Misil tariqasida, bosh qahramon Fozilbekning monolog-xotirasiga e'tibor beraylik:

"O'z ko'zi bilan ko'rdi, shohidi bo'ldiki, o'lim uzoqdagi narsa emas, u har kimga kissasidagi pulidan-da yaqinroq. Pul sarflanif-sovurilib ketadi, yo'qoladi-ketadi, u qo'lning kiri, pulning egasi yo'q. pul jozibali bo'lsa-da, vafosiz, tirik jon borki, shu vafosizga intiladi, unga vafo ko'rsatgisi keladi, undan sadoqatlar kutadi, uning ishqida aylanib-o'rgiladi, o'lim esa yovuz, biroq-vafodor. Pulni xarchand mahkam tutma, ehtiylotlama, unga harchand joningni nisor qilma-befoyda, u dunyodagi eng suyuqyoq ayoldan-da bevaforoq». («Bozor» 45-bet)

Fozilbek bozor aylanib yurib bolalikdagi do'sti In'omalini ko'rib qoladi. Yuqoridagi monolog o'n uch-o'n to'rt yoshlarida In'omalinikiga borgan Fozilbekning o'lim» va «pul haqidagi fikr mulohazalari edi. O'ttiz yoshlardagi Fozilbek tilidan berilgan bu monolog-xotira qahramonning individual ma'naviy olamini yaratish uchun juda o'rinni qo'llanilgan. Aks holda yozuvchi ko'proq lirik chekinish qilib ko'p so'zlikka berilgan bo'lardi. Monologning tili aniq va ravshan, hozirgi hayotning qiyofasini ko'z oldimizda to'liq gavdalantiradi.

Fozilbekning monologik nutqi, ayniqsa o'lim» va «pul to'g'risidagi qalb iztiroblari kitobxonga ham ta'sir ko'rsatadi va shu usulda Fozilbek obrazini oydinlashtiradi. Yozuvchi Fozilbek monologi vositasida zamondoshlarimizning qiyofasini, yashirin sir-asrorlarini, o'y-fikrlarini tipiklashtirib beradi.

Umuman olganda, yozuvchi monolog orqali inson qalbining yashirin, hech kim bilmaydigan, faqat o'zigagina ayon bo'lgan qirralarini ochishga harakat qiladi. Lekin, uning nutqidagi. "juvon bo'lgan taqdirda ham, oilali emas" so'zlari Fozilbekning juvonmi-qizmi bunga e'tibor ham bermayotganligini anglatadi. Professor Sanjar Sodiq Haqqoniylit kuchi maqolasida "Fozilbekning Sharq kishisi, o'zbek yigit bo'laturib, shuningdek, qo'shnisining kelini qiz chiqmasligi oqibatida bo'layotgan janjallar qulog'ini qomatga keltirayotgan bir sharoitda juvonga uylanishining mohiyati



to'g'risida sira uylamasligi, erkaklik g'ururining qadri haqida mutlaqo iztirob chekmasligi kitobxonga erish tuyuladi" - deb to'g'ri ta'kidlaydi.

Ichki monolog qahramonlarning og'ir ruhiy holatlarini, birovga aytib bo'lmaydigan yashirin, iztirobli dardlarini kitobxonga yetkazish usulidir.

Badiiy asar yaratilar ekan, undagi qahramon ruhiyati, ichki-kechinma, his-tuyg'ularini kitobxonga ketkazishda undagi manolog va dialoglarning o'rni katta.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент, 1979 йил, 145-бет.
6. Luqmon BO'RIXON "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi qissa "Yoshlik", 2014 yil 2-son
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер, 2000.
8. Xamro Abdullaev. Hozirgi o'zbek romanlarida talqin muammosi.2020.
9. Қахҳор А. Асарлар. 6 томлик, 6-том.- Т.: 1971.